

## OGYUST KONT INSON TAFAKKURI RIVOJLANISHINING UCH BOSQICH QONUNIYATI

**O'rozmamatova Sitora Safar qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti  
universiteti psixologiya va sotsiologiya kafedrasida sotsiologiya  
yo'nalishi talabasi sitor0402@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada fransuz faylasufi va sotsiologiyasi asoschisi Ogyust Kont (Auguste Comte) tomonidan ilgari surilgan inson tafakkuri rivojlanishining uch bosqich qonuniyatini (teologik, metafizik va ilmiy/pozitiv) tahlil qilingan. Maqolada har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlari, ularning jamiyat tuzilishi, ijtimoiy tashkilot va ilm-fan taraqqiyotidagi o'rni atroflicha yoritilgan. Kontning ushbu nazariyasi nafaqat inson aqliy evolyutsiyasining universal modelini taklif etgani, balki ijtimoiy hayotni tushunish va boshqarishga ilmiy yondashuvni joriy etishga bo'lgan intilishi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, maqolada Kontning pozitivistik falsafasi va sotsiologik qarashlarining keyingi ilmiy va ijtimoiy fikrga ta'siri, uning cheklangan jihatlari hamda Yangi O'zbekistonning ta'lim, fan va innovatsiyaga yo'naltirilgan taraqqiyot strategiyasi bilan o'zaro bog'liqligi tahlil etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *uch bosqich qonuniyati, teologik bosqich, metafizik bosqich, pozitiv bosqich, fetishizm, politeizm, monoteizm, ijtimoiy taraqqiyot, ilm-fan, intellektual evolyutsiya.*

### KIRISH

Insoniyatning o'zini, o'zining jamiyatini va atrof-muhitni anglashga bo'lgan intilishi falsafiy tafakkurning doimiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib kelgan. Bu jarayonning bosqichma-bosqich rivojlanishini nazariy jihatdan asoslashga uringan buyuk mutafakkirlardan biri - fransuz faylasufi Ogyust Kont (1798-1857) dir. U "sotsiologiya" atamasini fanga kiritgan va uning asoschisi hisoblanadi. Kontning eng muhim g'oyalariidan biri inson tafakkuri rivojlanishining uch bosqich qonuniyatidir. Bu qonuniyat insoniyatning intellektual va ijtimoiy taraqqiyotini tushuntirish uchun universal modelni taklif etib, har bir bosqichda inson ongining voqelikni tushuntirish usullari va unga mos ijtimoiy tuzilmalar o'zgarib borishini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonni qurish jarayonida ilm-fan, innovatsiya va texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ko'plab nutqlari, qaror va farmonlarida mamlakatni "bilimlar iqtisodiyoti" ga o'tkazish, "aqlli jamiyat" qurish, yosh avlodni ilmiy tafakkur ruhida tarbiyalash g'oyalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmonida ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, inson

kapitaliga sarmoya kiritish va raqamli iqtisodiyotni shakllantirish muhim ustuvor yo'nalishlar etib belgilangan. Ushbu Farmon jamiyatning har bir jabhasida ilmiy-ratsional yondashuvni qaror toptirish, muammolarni fan asosida hal etishga chaqiradi [1]. Shuningdek, 2020-yil 29-sentabrdagi PQ-4848-sonli "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori esa yosh avlodda tanqidiy fikrlash, tahliliy ko'nikmalar va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan bo'lib [2], bu bevosita Kontning "ilmiy (pozitiv) bosqich" g'oyasi bilan uyg'unlik kasb etadi. Aynan shu nuqtai nazardan, Ogyust Kontning inson tafakkurini uch bosqichga ajratishi, xususan, "ilmiy (pozitiv) bosqich"ga erishish orqali jamiyatda barqarorlik va taraqqiyotga erishish mumkinligi haqidagi g'oyasi bugungi O'zbekistondagi islohotlar bilan bevosita rezonans hosil qiladi.

Ogyust Kont XIX asrning eng yetuk mutafakkirlaridan biri bo'lib, u fransuz inqilobidan keyingi ijtimoiy beqarorlik sharoitida yashagan. Uning asosiy maqsadi jamiyatda tartib va barqarorlikni tiklash uchun yangi, ilmiy asosga ega ijtimoiy tashkilot nazariyasini yaratish edi. Kontning fikricha, fizika kabi aniq fanlar tabiat hodisalarini tushuntirishda muvaffaqiyatga erishgani singari, jamiyat ham o'z qonuniyatlariga ega va ularni ilmiy metodlar orqali o'rganish mumkin. Bu g'oya sotsiologiya fanining paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Kont sotsiologiyani "ijtimoiy fizika" deb atagan va uni barcha fanlar ierarxiyasining eng yuqori cho'qqisi deb bilgan [3].

Uch bosqich qonuniyati Kontning pozitivistik falsafasining o'zagini tashkil etadi. Bu qonuniyat, uning fikricha, nafaqat har bir insonning individual tafakkuri, balki butun insoniyat sivilizatsiyasining intellektual evolyutsiyasini ham izohlaydi. Kont bu qonuniyatni o'zining olti jildlik "Kurs de filosofiya pozitiv" (Pozitiv falsafa kursi) asarida batafsil bayon qilgan. Unga ko'ra, har qanday fan, shuningdek, insoniyat tafakkuri o'z rivojlanishida uch xil holatdan o'tadi [4]:

1. Teologik (diniy) bosqich: Barcha hodisalar ilohiy, g'ayritabiiy kuchlar bilan izohlanadi.

2. Metafizik (abstrakt) bosqich: Hodisalar abstrakt kuchlar, mohiyatlar va sabablar bilan izohlanadi.

3. Ilmiy (pozitiv) bosqich: Hodisalar kuzatish, tajriba va aniq qonuniyatlar asosida izohlanadi.

Inson tafakkuri rivojlanishining teologik (diniy) bosqichi.

Kontning uch bosqich qonuniyatining birinchi pog'onasi teologik bosqichdir. Bu bosqichda insoniyat tabiat hodisalarining va o'z hayotining mohiyatini ilohiy yoki g'ayritabiiy kuchlarga bog'laydi. U barcha hodisalar ortida yashirin, insoniyat ustidan hukmronlik qiluvchi oliy mavjudotlar yoki ruhiy kuchlar turadi deb hisoblaydi. Bu bosqich insoniyat tafakkurining dastlabki, eng sodda shakli bo'lib, unda voqelikni tushuntirishda xayolot va tasavvur asosiy rol o'ynaydi [5].

Kont teologik bosqichni uch kichik davrga ajratadi:

1. Fetishizm: Bu eng dastlabki holat bo'lib, insonlar jonsiz narsalarga (tosh, daraxt, o'simliklar) jon va g'ayritabiiy kuch berib, ularga sig'inadi. Har bir predmet

o'ziga xos ruhiy kuchga ega deb hisoblanadi. Bu davr ibtidoiy jamiyatlarga xos bo'lib, unda tabiat kuchlaridan qo'rqish va ularni ilohiylashtirish ustuvor bo'ladi.

2. Politeizm (ko'pxudolik): Tafakkur rivojlanishi bilan odamlar tabiat hodisalarini (momaqalldiroq, yomg'ir, shamol) turli xudolar bilan bog'laydi. Har bir tabiat kuchining o'z xudosi bo'lib, ular orasida ma'lum bir ierarxiya mavjud bo'ladi. Bu davrda mifologiya va afsonalar rivojlanadi, murakkab diniy tizimlar shakllanadi. Misr, Yunon va Rim sivilizatsiyalari bunga yaqqol misoldir.

3. Monoteizm (yakkaxudolik): Bu teologik bosqichning eng yuqori bosqichi bo'lib, barcha hodisalarni bitta, yagona oliy mavjudot – Xudo irodasi bilan tushuntirishga intiladi. Har qanday voqea-hodisaning sababini ilohiy iroda, taqdir va ilohiy qonuniyatlarda ko'radi. Xristianlik, islom va iudaizm kabi dinlar bu bosqichga tegishlidir. Monoteizm nisbatan tartibliroq va universalroq tushuntirishni taklif qiladi, ammo baribir g'ayritabiiy kuchlarga asoslanadi [6].

Teologik bosqichga mos keladigan ijtimoiy tuzilma harbiy va ruhoniylar boshqaruvga asoslanadi. Hokimiyat kuch va diniy avtoritetga tayangan bo'lib, ruhoniylar jamiyatda muhim o'rin tutadi, chunki ular ilohiy irodani sharhlovchi va insonlar bilan Xudo o'rtasida vositachi deb hisoblanadi.

Metafizik (abstrakt) bosqich: o'tish davri tafakkuri

Uch bosqich qonuniyatining ikkinchi pog'onasi metafizik bosqichdir. Bu bosqich teologik va ilmiy bosqichlar o'rtasidagi o'tish davri bo'lib, unda g'ayritabiiy kuchlar o'rniga abstrakt g'oyalar, mohiyatlar, sabablar va universal qonuniyatlar tushuntirish vositasi bo'ladi. Inson tafakkuri endi hodisalarni ilohiy aralashuv bilan emas, balki "tabiatning o'ziga xos xususiyatlari", "birlamchi sabablar", "substansiyalar" yoki "muhim kuchlar" bilan izohlaydi [7].

Bu bosqichda diniy tushunchalar asta-sekin falsafiy abstraksiyalar bilan almashtiriladi. Misol uchun, "Xudoning irodasi" o'rniga "tabiiy qonun", "ilohiy taqdir" o'rniga "tabiatning tartibi" kabi tushunchalar qo'llaniladi. Biroq, bu tushunchalar hali ham empirik kuzatish va tajribaga asoslanmaydi, balki spekulativ va mavhum xarakterga ega bo'ladi. Yunon faylasuflarining elementlar, atomlar, g'oyalar haqidagi ta'limotlari, o'rta asrlar sxolastik falsafasi va Uyg'onish davrining ayrim ratsionalistik nazariyalari metafizik bosqichga misol bo'lishi mumkin.

Muhokama va natijalar. Kontning fikricha, metafizik bosqich o'z-o'zidan barqaror emas va uzoq davom eta olmaydi. U yangi, ilmiy tafakkurga o'tish uchun zarur bo'lgan tayyorgarlik davri hisoblanadi. Bu bosqichda ijtimoiy tashkilotda ruhoniylar hukmronligi zaiflashib, huquqshunoslar va faylasuflarning o'rni kuchayadi, chunki ular jamiyatni boshqarishda mavhum qonunlar va umumiy g'oyalarga tayanadi [8].

Ilmiy (pozitiv) bosqich: kuzatish va tajriba hukmronligi

Uch bosqich qonuniyatining eng yuqori va yakuniy bosqichi ilmiy, ya'ni pozitiv bosqichdir. Bu bosqichda inson tafakkuri har qanday g'ayritabiiy va metafizik tushuntirishlardan voz kechadi. Endi insoniyat hodisalarining sababini yoki ularning mohiyatini emas, balki ularning qanday sodir bo'lishini, ya'ni ularni bog'lovchi

qonuniyatlarni topishga intiladi. Bu qonuniyatlar esa empirik kuzatish, tajriba va mantiqiy xulosalar asosida shakllanadi. Ilmiy bosqichning asosiy maqsadi- hodisalarni bashorat qilish va ularni nazorat qilishdir [9].

Kontga ko'ra, bu bosqichning asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

1. Empirizm va kuzatish: Barcha bilimlar hissiy tajriba va tizimli kuzatishga asoslanadi.

2. Faktlarga tayanish: Nazariyalar faktlar asosida tekshiriladi va isbotlanadi.

3. Universal qonuniyatlarni izlash: Tabiat va jamiyatdagi hodisalarni bog'lovchi doimiy va umumiy qonuniyatlarni aniqlash.

4. Bashorat qilish va nazorat: Topilgan qonuniyatlar asosida kelajakdagi hodisalarni oldindan aytish va ularni boshqarish imkoniyatini yaratish.

5. "Qanday?" savoli "Nima uchun?" savolidan ustunlik qiladi: Ilm-fan hodisalarning boshlang'ich yoki oxirgi sabablarini izlashdan voz kechadi, balki ularning ish mexanizmlari va o'zaro aloqalarini o'rganadi [10].

Kont pozitiv bosqichda fanlar ierarxiasini ham taklif qilgan. Unga ko'ra, fanlar oddiydan murakkabga qarab rivojlanadi va bir-birini to'ldiradi: matematika, astronomiya, fizika, kimyo, biologiya va eng yuqorida sotsiologiya. Kont sotsiologiyani "ilmlar malikasi" deb atagan, chunki u jamiyatni ilmiy asosda o'rganish orqali ijtimoiy tartib va taraqqiyotni ta'minlashga qodir [11].

Ilmiy bosqichga mos keladigan ijtimoiy tuzilma industrial jamiyatga, fan va sanoatni rivojlantirishga asoslanadi. Jamiyatni olimlar, muhandislar va tadbirkorlar boshqarishi kerak, chunki ular ilm-fan va texnologiyalardan foydalanib, ijtimoiy muammolarni hal qilish va umumiy farovonlikni oshirishga qodir. Bu bosqichda Kont "pozitiv din" ni ham taklif qilgan, unda insoni yatni oliy mavjudot sifatida e'tirof etish va unga xizmat qilish g'oyasi markaziy o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, Ogyust Kontning inson tafakkuri rivojlanishining uch bosqich qonuniyati falsafiy va ijtimoiy fikr tarixida muhim bosqich bo'lib, u inson aql-idrokining evolyutsiyasini va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini tushuntirishga qaratilgan universal modelni taklif etgan. Maqolada tahlil qilinganidek, teologik bosqich g'ayritabiiy kuchlarga, metafizik bosqich abstrakt tushunchalarga, ilmiy (pozitiv) bosqich esa empirik kuzatish va tajribaga asoslangan ratsional bilimlarga tayangan. Kontning fikricha, ilmiy bosqich insoniyat tafakkurining eng yuksak cho'qqisi bo'lib, u jamiyatda tartib, barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlaydi. Kontning sotsiologiya fanini asoslashi va ijtimoiy hodisalarni ilmiy metodlar orqali o'rganishga chaqirishi zamonaviy ijt imoiy fanlarning rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratgan.

Bugungi Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, ilm-fan, ta'lim va innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan strategik siyosat bevosita Kontning "ilmiy (pozitiv) jamiyat" g'oyasi bilan hamohangdir. Prezidentimizning qaror va farmonlarida belgilanganidek, ma'rifatli jamiyat qurish, inson kapitalini rivojlantirish va bilimlar iqtisodiyotiga o'tish orqali mamlakatimizni yangi taraqqiyot

bosqichiga olib chiqish - bu Kont orzu qilgan ratsional, ilmiy asoslangan va farovon jamiyat ideali bilan mushtarakdir. Kontning merosi bugun ham bizga o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishishda ilmiy tafakkur, obyektiv tahlil va progressiv yondashuvlarning muhimligini eslatib turadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2022). 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son.
2. Mirziyoyev, Sh. M. (2020). Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 2020-yil 29-sentabr, PQ-4848-son.
3. Comte, A. (1853). The Positive Philosophy of Auguste Comte. Freely translated and condensed by Harriet Martineau (Vol. 1-2). London: Chapman. (Asl nomi: Cours de philosophie positive).
4. Comte, A. (1875). System of Positive Polity, or Treatise on Sociology, Instituting the Religion of Humanity (Vol. 1-4). London: Longmans, Green, and Co.
5. Aron, R. (1965). Main Currents in Sociological Thought (Vol. 1: Montesquieu, Comte, Marx, Tocqueville, The Sociologists and the Revolution of 1848). New York: Basic Books.
6. Giddens, A. (2013). Sociology. 7th ed. Cambridge: Polity Press.
7. Coser, L. A. (1971). Masters of Sociological Thought: Ideas in Historical and Social Context. 2nd ed. New York: Harcourt Brace Jovanovich.
8. Kolakowski, L. (1972). Positivist Philosophy: From Hume to the Vienna Circle. Harmondsworth: Penguin.
9. Mill, J. S. (1865). Auguste Comte and Positivism. London: N. Trübner and Co. (Kontning g'oyalari haqidagi muhim tanqidiy tahlil).
10. Lenzer, G. (1975). Auguste Comte and the Project of Political Sociology. New Brunswick, N.J.: Transaction Books.
11. Pickering, M. (1993). Auguste Comte: An Intellectual Biography. Cambridge: Cambridge University Press.